


“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Milliy statistika qo‘mitasi raisi**



B. Hamrayev

2026-yil “21” *iyul*

**O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi
Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi to‘g‘risida
N I Z O M**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Axborot, kommunikatsiyalar va media markazining maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, tuzilmasi, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda — Milliy statistika qo‘mitasi) markaziy apparatining mustaqil tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

3. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi o‘z faoliyatini bevosita Milliy statistika qo‘mitasi raisi rahbarligida amalga oshiradi.

4. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi faoliyati rasmiy axborot siyosati, matbuot va jamoatchilik bilan kommunikatsiyalar, strategik kommunikatsiyalar, media monitoring, raqamli kontent, multimedia materiallari, rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarni yuritish hamda hududiy axborot xizmatlari bilan uslubiy hamkorlik yo‘nalishlarini qamrab oladi.

5. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom, Milliy statistika qo‘mitasining ichki hujjatlari hamda mazkur Nizomga amal qiladi.

6. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi o‘z faoliyatini Milliy statistika qo‘mitasi markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari, tuman va shahar statistika bo‘limlari, vakolatli davlat organlari, ommaviy axborot vositalari va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

II. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazining asosiy vazifalari va funksiyalari

7. Quyidagilar Axborot, kommunikatsiyalar va media markazining asosiy vazifalari va funksiyalari hisoblanadi:

Milliy statistika qo'mitasi raisi tomonidan belgilanadigan axborot siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish;

Milliy statistika qo'mitasi faoliyati, rasmiy statistika ma'lumotlari, statistika dasturlari ijrosi, Qo'mita rahbariyati ishtirokidagi tadbirlar, xalqaro hamkorlik uchrashuvlari va dolzarb tashabbuslar yuzasidan jamoatchilikka muntazam, xolis, to'liq va tezkor axborot yetkazib borish;

rasmiy statistika ma'lumotlarini keng jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari, tadbirkorlik subyektlari, ekspertlar, xalqaro tashkilotlar va boshqa foydalanuvchilar uchun sodda, aniq va tushunarli shaklda yetkazish;

ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar, bloggerlar, internet-nashrlar va keng jamoatchilik bilan samarali, ochiq va doimiy kommunikatsiyani yo'lga qo'yish;

matbuot anjumanlari, brifinglar, press-turlar, intervyular, ochiq muloqotlar, mediaturalar va boshqa axborot tadbirlarini tashkil etish hamda ularning yoritilishini muvofiqlashtirish;

Milliy statistika qo'mitasining ijobiy imijini shakllantirish hamda statistika organlari faoliyatini targ'ib qilish;

ommaviy axborot vositalari, internet-nashrlar va ijtimoiy tarmoqlarda Milliy statistika qo'mitasi faoliyati hamda rasmiy statistika ma'lumotlariga oid axborotlarni monitoring qilish va tahlil etish;

noto'g'ri talqin qilingan statistika ma'lumotlari, xato raqamlar, tanqidiy chiqishlar, axborot xurujlari va salbiy media kontent yuzasidan tezkor kommunikatsiya choralari ishlab chiqish hamda zarur hollarda rasmiy munosabat bildirilishini tashkil etish;

Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida axborot materiallarining o'z vaqtida, sifatli va yagona uslubda e'lon qilinishini ta'minlash;

rasmiy statistika ma'lumotlari asosida axborot xabarlari, tahliliy sharhlar, infografikalar, izohli postlar, savol-javoblar, videoroliklar, audio materiallar, podkastlar va boshqa media mahsulotlarni tayyorlash;

Milliy statistika qo'mitasi faoliyatiga oid foto, audio, video, dizayn, infografika va boshqa raqamli materiallar bazasini shakllantirish, tizimli saqlash va yangilab borish;

hududiy statistika organlari axborot xizmatlariga uslubiy yordam ko'rsatish hamda ularning faoliyatini yagona uslub va rasmiy kommunikatsiya talablari asosida muvofiqlashtirish;

Milliy statistika qo'mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkiliy-uslubiy va axborot jihatidan ta'minlash;

Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi faoliyatiga oid hujjatlar, hisobotlar, media-rejalar, monitoring ma'lumotlari va boshqa ish materiallarini tayyorlash hamda tizimli saqlash.

Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'ziga yuklatilgan boshqa vazifa va funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

III. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazining huquqlari

8. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha Milliy statistika qo'mitasi markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari, hududiy statistika organlari va boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda zarur axborot, ma'lumot, hujjat, foto, video va boshqa materiallarni so'rash hamda olish;

Milliy statistika qo'mitasining yig'ilishlari, majlislari, seminarlari va boshqa tadbirlarida vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha ishtirok etish;

Axborot, kommunikatsiyalar va media markaziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun Milliy statistika qo'mitasi raisi bilan kelishgan holda Qo'mitaning boshqa tarkibiy bo'linmalari xodimlarini, boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va malakali ekspertlarini belgilangan tartibda jalb etish;

Milliy statistika qo'mitasi rahbariyatining topshirig'iga ko'ra davlat organlari, respublika va xalqaro ahamiyatga ega tadbirlarda Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha Milliy statistika qo'mitasi nomidan ishtirok etish;

Milliy statistika qo'mitasining axborot siyosati, rasmiy kommunikatsiya uslubi, media bilan ishlash amaliyoti, raqamli kontent va ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish hamda ma'qullangan takliflarni amalga oshirishda ishtirok etish;

Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi faoliyatiga oid buyruqlar, chora-tadbirlar rejaları, media-rejalar, strategiyalar, yo'riqnomalar va boshqa ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

hududiy statistika organlari axborot xizmatlarining faoliyatini monitoring qilish, ularga uslubiy yordam ko'rsatish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritish;

rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar, media arxivlar va boshqa axborot resurslaridan xizmat vazifalari doirasida foydalanish.

IV. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazining majburiyatlari va javobgarligi

9. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi quyidagilarga majbur:

o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni o'z vaqtida, sifatli va to'liq bajarish; ommaga taqdim etiladigan axborot materiallarining rasmiy manbalarga asoslanganligi, statistika ma'lumotlarining aniqligi, ishonchliligi, xolisligi va tushunarliqligini ta'minlash;

axborot materiallarini tayyorlashda davlat tili to'g'risidagi qonunchilik, rasmiy uslub, imlo qoidalari, tarjima sifati, terminologik aniqlik, statistika tushunchalarining to'g'ri ifodalanishi va yagona vizual uslub talablariga rioya etish;

davlat sirlarini, xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan axborotni, statistik maxfiylikni va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish hamda axborot xavfsizligi talablariga rioya etish;

ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar, bloggerlar, jismoniy va yuridik shaxslar bilan muloqotda qonunchilik, odob-axloq qoidalari va rasmiy kommunikatsiya talablariga rioya etish;

Axborot, kommunikatsiyalar va media markaziga birlashtirilgan texnik vositalar, media uskunalari, elektron bazalar, arxiv materiallari va boshqa moddiy boyliklardan maqsadli hamda samarali foydalanish;

ijro va mehnat intizomiga, ichki tartib-qoidalarga va rahbariyat topshiriqlariga rioya etish.

10. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatining milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida xolis, sifatli va tezkor yoritilishi, rasmiy statistika ma'lumotlarining to'g'ri talqin qilinishi, axborot materiallarining belgilangan muddatlarda tayyorlanishi hamda o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalarning lozim darajada bajarilishi uchun javobgar hisoblanadi.

11. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi xodimlari o'z lavozim yo'riqnomalarida belgilangan vazifalar, vakolatlar va javobgarlik doirasida shaxsan javobgar hisoblanadi.

V. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazining tuzilmasi

12. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazining tuzilmasi Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi rahbari hamda quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

Axborot siyosati, matbuot va jamoatchilik bilan kommunikatsiyalar bo'limi;

Raqamli kontent va media materiallarini tayyorlash bo'limi.

13. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi tarkibiga kiruvchi bo'limlar o'z faoliyatini Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi rahbari boshchiligidagi amalga oshiradi.

14. Bo'lim boshliqlari va Axborot, kommunikatsiyalar va media markazining boshqa xodimlari Milliy statistika qo'mitasi raisi tomonidan belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

15. Axborot siyosati, matbuot va jamoatchilik bilan kommunikatsiyalar bo'limi quyidagi asosiy yo'nalishlarda faoliyat yuritadi:

Milliy statistika qo'mitasining axborot siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish;
ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar, bloggerlar va keng jamoatchilik bilan samarali kommunikatsiyani yo'lga qo'yish;

press-relizlar, axborot xabarlar, tahliliy materiallar, maqolalar, intervyular va boshqa axborot materiallarini tayyorlash;

matbuot anjumanlari, brifinglar, press-turlar, intervyular, ochiq muloqotlar va boshqa axborot tadbirlarini tashkil etish;

rasmiy statistika ma'lumotlarini jamoatchilikka sodda, aniq va tushunarli shaklda yetkazish;

ommaviy axborot vositalari, internet-nashrlar va ijtimoiy tarmoqlarda Milliy statistika qo'mitasi faoliyati hamda rasmiy statistika ma'lumotlariga oid axborotlarni monitoring qilish va tahlil etish;

rasmiy statistika ma'lumotlarining noto'g'ri talqin qilinishi, xato raqamlar va tanqidiy chiqishlar yuzasidan tahliliy ma'lumotlar hamda takliflar tayyorlash;

Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi faoliyatiga oid hujjatlar, hisobotlar, monitoring ma'lumotlari, rasmiy xatlar va boshqa ish materiallarini tayyorlash, umumlashtirish hamda tizimli saqlash;

hududiy statistika organlari axborot xizmatlariga uslubiy yordam ko'rsatish.

Bo'lim belgilangan tartibda o'ziga yuklatilgan boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

16. Raqamli kontent va media materiallarini tayyorlash bo'limi quyidagi asosiy yo'nalishlarda faoliyat yuritadi:

Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini foto, video, infografika, dizayn va boshqa raqamli media formatlarida yoritish;

rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar uchun raqamli kontent va multimedia materiallarini tayyorlash;

rasmiy statistika ma'lumotlari asosida infografikalar, diagrammalar, grafiklar, videoroliklar, podkastlar va boshqa vizual materiallarni ishlab chiqish;

Milliy statistika qo'mitasining rasmiy tadbirlari, matbuot anjumanlari, brifinglari, press-turlari, intervyulari va uchrashuvlarini foto va video formatlarda yoritish;

tayyorlanadigan media mahsulotlarning mazmuniy, texnik va vizual sifatini ta'minlash;

matnli axborot materiallarini video, audio, infografika va boshqa multimedia formatlariga moslashtirish;

ijtimoiy tarmoqlardagi kontent samaradorligi, auditoriya qamrovi va foydalanuvchilar faolligini tahlil qilish;

media fayllar, foto va video arxivlar, dizayn manbalari hamda boshqa raqamli materiallarning tizimli saqlanishini ta'minlash;

hududiy statistika organlari axborot xizmatlariga raqamli kontent, dizayn, infografika, foto va video materiallar tayyorlash bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatish.

Bo'lim belgilangan tartibda o'ziga yuklatilgan boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

VI. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazining faoliyatini tashkil etish

17. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazining shtat birliklari tasdiqlangan umumiy shtatlar soni doirasida Milliy statistika qo'mitasi raisi tomonidan belgilanadi.

18. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi faoliyati Milliy statistika qo'mitasi raisi tomonidan tasdiqlanadigan yillik va joriy ish rejalari, media-rejalar, topshiriqlar hamda ichki idoraviy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

19. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi rahbari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Kommunikatsiyalar departamentining xulosasiga ko'ra Milliy statistika qo'mitasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

20. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi rahbari bevosita Milliy statistika qo'mitasi raisiga bo'ysunadi va Milliy statistika qo'mitasi raisining axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi hisoblanadi.

21. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi rahbari:

Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, ish jarayonlarini tashkil etadi, rejalashtiradi va nazorat qiladi;

Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi hamda ularning belgilangan muddatlarda va sifatli bajarilishi ustidan nazorat o'rnatadi;

Axborot, kommunikatsiyalar va media markazining ish rejalari, media-rejalari va faoliyatiga oid ichki hujjatlarni ishlab chiqadi hamda tasdiqlash uchun Milliy statistika qo'mitasi raisiga kiritadi;

Milliy statistika qo'mitasi markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari, hududiy statistika organlari, ommaviy axborot vositalari, xalqaro tashkilotlar va boshqa hamkorlar bilan o'zaro hamkorlikni muvofiqlashtiradi;

Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi faoliyati samaradorligini oshirish, media bilan ishlash uslublarini takomillashtirish, xodimlarning kasbiy malakasini oshirish va ularni rag'batlantirish bo'yicha Milliy statistika qo'mitasi raisiga takliflar kiritadi;

Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi xodimlariga o'z vakolati doirasida bajarilishi majburiy bo'lgan topshiriqlar va ko'rsatmalar beradi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi;

Axborot, kommunikatsiyalar va media markaziga yuklangan vazifa va funksiyalarning o'z vaqtida, sifatli va to'liq bajarilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

22. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazining bo'lim boshliqlari o'zlari rahbarlik qiladigan bo'limlar faoliyatini tashkil etadi, xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, topshiriqlar ijrosini muvofiqlashtiradi hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi rahbariga axborot va hisobot taqdim etib boradi.

23. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi xodimlarining funksional vazifalari Milliy statistika qo'mitasi raisi tomonidan tasdiqlanadigan lavozim yo'riqnomalari bilan belgilanadi.

24. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi rahbari xizmat safarida, mehnat ta'tilida bo'lgan yoki vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz bo'lgan davrda uning vazifalari Milliy statistika qo'mitasi raisining tegishli hujjatiga muvofiq Axborot, kommunikatsiyalar va media markazining mas'ul xodimlaridan biri zimmasiga vaqtincha yuklatiladi.

25. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi faoliyatini axborot, huquqiy, moddiy-texnik va transport bilan ta'minlash, shuningdek, xodimlarga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish Milliy statistika qo'mitasining tegishli tarkibiy bo'linmalari tomonidan qonunchilik hujjatlari va ichki tartib-qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

VII. Yakuniy qoidalar

26. Mazkur Nizom bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Milliy statistika qo'mitasining ichki hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

27. Mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Milliy statistika qo'mitasi raisining tegishli hujjati asosida amalga oshiriladi.

28. Axborot, kommunikatsiyalar va media markazini qayta tashkil etish yoki tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

29. Mazkur nizom talablarini buzgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

